




**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2024- YIL YANVAR-DEKABR**




DASTLABKI MA'LUMOT

**Tel.: 61-222-75-87
www.qrstat.uz**

Qoraqalpog‘iston Respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2025 yil 1-yanvar holatiga ko‘ra)

Bugungi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2446 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 494 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 20,2 % i) Nukus shahriga, 243 tasi (9,9 %) Amudaryo tumaniga, 237 tasi (9,7 %) To‘rtko‘l tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.






Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi korxonalari tomonidan 24598,3 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,8 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, shahar va tumanlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Taxiatosh tumanida (42065,3 ming so'm), Nukus shahrida (23275,0 ming so'm) o'rtacha Qoraqalpog'iston Respublikasi darajasi ko'rsatkichidan (12200,4 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, yanvar-dekabr, mln so'mda





Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

12,2 mln so'm




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'sish sur'ati, yanvar-dekabr, % da



ming so'mda  o'sish sur'ati, % da 


Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 20843,0 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 84,7 % ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Nukus shahri (32,4 %), Taxiatosh tumani (13,2 %), Amudaryo tumani (8,5 %), Qo'ng'iro't tumani (5,8 %), Beruniy tumani (4,0 %) hamda To'rtko'l tumani (3,7 %) hissasiga tog'ri keldi.

Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Shumanay tumanida (116,3 %), Mo'ynoq tumanida (114,2 %), Bo'zatov tumanida (112,4 %), Amudaryo (112,1 %) tumanlarida kuzatildi.





Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, shahar va tumanlar kesimida

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 419,1 mlrd so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 1,7 % ga to'g'ri keldi.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar-dekabr, mlrd so'mda




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar-dekabr, % da



Amudaryo




2 294,9

mln so'mda

ulushi, % da

**Yanvar-dekabr oylarida yirik sanoat korxonalari tomonidan
ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

**Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi
sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi**




Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-dekabr*	2024- yil yanvar-sentabr
Ohaktosh, ming t.	175,9	150,5
Gaz kondensati, ming t.	63,6	50,5
Tabiiy gaz, mln. kub.m	999,6	866,8

* 2023-yil yanvar-dekabr oylari uchun ishlab chiqarish xajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan


Ishlab chiqaradigan sanoat, shahar va tumanlar kesimida

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 20843,0 mlrd so’mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 84,7 % ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi




mlrd so'mda — ulushi, % da

Yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlar
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 0,05 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 38,7 % (48,9%), o'rta-quyi texnologiyali – 9,0 % (6,6 %), quyi texnologiyali 52,2 % (44,4 %) ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 39,8 % (2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 24,4 % (2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 132,0 %) ga, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 24,1 % (2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,6 %) to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlar (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish – 2,6 % (2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 125,0 %) ni tashkil etdi.



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida 980,5 ming tonna portlandsement (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 2,0 marta ko'paygan), 5,9 ming tonna o'simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar (58,9 % ga ko'paygan), 42,8 ming tonna paxta tolasi (31,5 % ga ko'paygan), 6,3 ming tonna o'simlik yog'i (13,9 % ga kamaygan), 3494,8 ming litr aroq (3,1 % ga ko'paygan), 16,1 ming tonna kalava ip (13,6 % ga kamaygan), 42,2 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (34,5 % ga kamaygan) hamda 55,9 ming m² gazlamalar (95,7 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-dekabr*	2024- yil yanvar-dekabr
Aroq, ming litr 100 % li spirt	3388,8	3494,8
O'simlik yog'i, (tozalangan), tonna	7329,0	6306,8
Portlandsement, tonna	488112,0	980512,8
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	64396,5	42187,7
Paxta tolasi, tonna	32528,4	42772,1

* 2023-yil yanvar-dekabr oylari uchun ishlab chiqarish xajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 38,7 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 4,7 % ga kamaydi hamda ishlab chiqarish hajmi 8057,7 mlrd so‘mni tashkil etgan.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,5 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 7,3 % ga o‘tdi va ishlab chiqarish hajmi 1149,8 mlrd so‘mga to‘g‘ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 22,0 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 102,9 % va ishlab chiqarish hajmi 4594,0 mlrd so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,1 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 110,7 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 439,3 mlrd so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 22,0 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 28,9 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 4588,3 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kiyim ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,3 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 70,2 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 489,5 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2024- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,1 % ni, fizik hajm indeksi 135,5 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 234,8 mlrd so'm kuzatildi.



Mebel ishlab chiqarish

Mebel ishlab chiqarish – korxonalar hamda muassasalar, oshxonalar mebellarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi mebel ishlab chiqarishning ulushi 1,6 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 98,4 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 330,2 mlrd so'm ekani kuzatildi.





Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, shahar va tumanlar kesimida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3219,0 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,1 % ini) tashkil etgan.




Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar-dekabr, trln so'mda



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar-dekabr, % da




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>2023- yil yanvar-dekabr*</i>	<i>2024- yil yanvar-dekabr</i>
Elektrenergiya, mln.kVt.s	5148,2	5064,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	43,1	42,6
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	129918,3	158193,4

* 2023-yil yanvar-dekabr oylari uchun ishlab chiqarish xajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Elektrenergiya va issiqlik energiyasi ishlab chiqarish
(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 98,4 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 99,0 % ni tashkil etdi.





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish, shahar va tumanlar kesimida

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 126,2 mlrd so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % iga) to'g'ri keldi.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar-dekabr mlrd so'mda



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar-dekabr % da



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi



Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-dekabr*	2024-yil yanvar-dekabr
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	8524,8	9223,2
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln so'm	65157,1	85722,2
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar mln so'm	9459,1	12364,9

* 2023-yil yanvar-dekabr oylari uchun ishlab chiqarish xajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish va suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha 31,6 % ga, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlarda 30,7 % ga hamda oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 8,2 % ga ko'paydi.




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9218,0 mlrd soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 37,5 % ni tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 29,9 % ni tashkil etgan.


Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar-dekabr, mlrd soʻmda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi



Jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi, yanvar-dekabr % da



Boʻzatov	100
60,1	
Beruniy	92,4
914,5	
Shumanay	92,0
368,5	
Amudaryo	74,8
1556,3	
Taxtakoʻpir	72,2
246,1	
Ellikqalʼa	72,0
557,0	
Nukus t.	69,1
348,5	
Moʻynoq	64,4
282,6	
Toʻrtkoʻl	54,5
498,6	
Xoʻjayli	48,4
260,4	
Qoraoʻzak	45,6
386,7	
Qoʻngʻirot	38,5
547,2	
Chimboy	36,2
174,8	
Kegeyli	36,2
140,7	
Qonlikoʻl	19,3
86,1	
Nukus sh.	11,2
892,4	
Taxiatosh	4,4
142,7	

● mlrd soʻmda ● Ulushi, % da



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Mahalliyashtirish darajasi – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sishsur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 40 ta loyiha bo'yicha 721,5 mlrd so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 38,7 mln AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga 444 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

